

**ZAMONAVIY JAMIYATDA YOSHLARNING IJTIMOIIY
TABAQALANISHI: OMILLAR VA OQIBATLAR**

Nazarova Nilufar Jo'rayevna

*Toshkent Davlat Transport universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsent
v.b.(PhD)*

Xusanova Durdona Abdusattor qizi

Toshkent Davlat Transport universiteti sotsiologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda yoshlarning ijtimoiy tabaqalanish jarayonlari, ularning shakllanish omillari va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari tahlil qilingan. Yoshlarning turli ijtimoiy guruhlariga ajralishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy, madaniy, ta'limiy va axborot-kommunikatsiya omillari o'rganilgan. Shuningdek, ijtimoiy tabaqalanishning yoshlar hayotidagi turli ijtimoiy muammolar va ijtimoiy adaptatsiya jarayonlariga ta'siri yoritilgan. Maqolada yoshlar o'rtasida ijtimoiy liftlar mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan hamda jamiyatda barqarorlikni ta'minlashda ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlarning ahamiyati asoslab berilgan. Xulosa o'rnida, yoshlarning ijtimoiy tabaqalanishini kamaytirish va ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *yoshlar, ijtimoiy tabaqalanish, ijtimoiy adolat, tenglik, ta'lim, bandlik, madaniy kapital.*

Kirish

Har bir davr yoshlarining bilim darajasi, dunyoqarashi, o'y-fikri, ma'naviy qiyofasiga qarab o'sha jamiyatning nafaqat ertangi kunini tasavvur etish mumkin, balki uning istiqbolini ham prognozlashtirish mumkin bo'ladi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq, aniqrog'i, 1991-yilning 20-noyabrida "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi[7] qonunning qabul qilinishi va uning yangi tahrirda qayta qabul qilinishi jamiyatimizda yoshlarga e'tibor masalasining davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini



ko'rsatadiki, bu esa o'z navbatida amalga oshirib kelinayotgan islohotlarda ham o'z aksini topmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risidagi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Yoshlarni vatanparvarlik ruhida va jismoniy tarbiyalash hamda chaqiriluvchilarni harbiy-texnik mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash tartibini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Fuqarolar yig'inlarida sportning futbol turini yanada rivojlantirish hamda fuqarolar yig'inlari raislarining o'rinbosarlari – yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchilarni moddiy rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston yoshlar ittifoqi huzuridagi "Yoshlar – kelajagimiz" jamg'armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori va boshqa shu kabi ko'plab qabul qilingan huquqiy-meyoriy hujjatlar yoshlar masalalarini o'rganishda institutsional asos sifatida xizmat qilib kelmoqda. Biroq amalga oshirilgan shuncha islohotlarga qaramasdan, yoshlar bilan bog'liq muammolar jamiyat faollarida yetarlicha xavotirlanishga sabab bo'lmoqda. Jumladan, 2023-yil 11-aprel kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishida "2022-yili 11 ta davlat oliygohining 11 mingdan ziyod bitiruvchilaridan 6,5 ming nafari ishga joylashmagani, yoki grantda o'qigan 3 ming talaba ham ishga kirmagani, professional ta'limda ham, o'tgan yili kollej va texnikumlarni 143 ming nafar yoshlar bitirgan bo'lsa, shundan 30 ming nafari ish topa olmagan"[2] kabi yoshlar bilan bog'liq bir qator muammolar qayd etildi. Shuningdek, yoshlar bandligini ta'minlash, sifatli ta'lim bilan qamrab olish va bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda sog'lom fikrlashlariga zamin yaratish bo'yicha vazifalar belgilab berildi.

Shuningdek, YUNISEF, Yoshlar ittifoqi hamda "Yuksalish" umumilliy harakati "O'zbekiston yoshlari: muammo va istiqbollar" deb nomlangan yirik tadqiqot natijalarida qayd etilishicha, "mamlakatda ko'p yillardan buyon pishib yetilgan hamda yoshlarning qimmatbaho inson kapitaliga aylanishiga to'sqinlik qilayotgan kompleks muammolar mavjud. Tadqiqotda qatnashgan yigit-qizlar davlatdan oliy va kasbiy



ta'lim sifatini yaxshilash, ishsizlik bilan samarali kurashish hamda aholi daromadlarini oshirish, erta nikoh, ajrimlar, katta va yosh avlod o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuviga o'xshash o'tkir ijtimoiy muammolarni bartaraf etishni kutayotgani"[3] ko'rsatib o'tilgan.

Albatta jamiyatning qudratini belgilaydigan omillar ko'p. Biroq ularning eng asosiylaridan biri, shubhasiz, shu yurtda voyaga yetayotgan yuksak ma'naviyatli, jismonan sog'lom, har tomonlama barkamol avloddir. Shu boisdan ham bugungi kun yoshlarning ijtimoiy tabaqalanish holatini chuqur tahlil qilish ijtimoiy fanlar, xususan, sotsiologiya va pedagogika uchun dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Muhokama

Ijtimoiy tabaqalanish – jamiyat a'zolarining ijtimoiy mavqe, daromad, ta'lim darajasi, kasbiy maqom, madaniy imkoniyatlar singari omillar asosida tabaqalarga ajralishidir. Yoshlar bu jarayonda alohida guruh sifatida ishtirok etadi, chunki ularning ijtimoiylashuvi, o'zini namoyon qilishi va kelajakdagi maqomi shu bosqichda shakllanadi[1].

Hozirgi kunda jamiyat hayotida yangi tengsizlik turlari shakllanib, unga quyidagilar kiradi: axborot tengsizligi, kasbiy tengsizlik, mahrum qilish tengsizligi, mobillik va xavfsizlikka teng bo'lmagan kirish imkoniyati. Bu tengsizliklar hali yetarlicha o'rganilmagan. Ularni empirik o'rganish uchun tegishli metodologik yondashuvlar va empirik usullar talab etiladi. Shunday yondashuvlardan birini amerikalik sotsiolog Lloyd Uorner ishlab chiqqan bo'lib, u ijtimoiy maqom xususiyatlarining standart indeksidan foydalanishni taklif qilgan [8]. Bu indeks tengsizlikning obyektiv mezonlarini (kelib chiqishi, yashash joyi, daromadi, ma'lumoti) va "subyektiv" mezonlarini (shaxslarning o'zlarini atrofdagilarga nisbatan baholashi) o'z ichiga olishini ta'kidlaydi.

Yoshlar ijtimoiy tabaqalanishi esa ularning oilaviy sharoiti, ta'lim imkoniyatlari, iqtisodiy manbalari va madaniy kapitallariga qarab jamiyatda turli mavqe va imkoniyatlarga ega bo'lishida namoyon bo'ladi. Respublikamiz hukumati tomonidan yoshlar siyosatini ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilagan bo'lsada [4, 6], amaliyotda ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan:



1. Qishloq joylarda ta'lim va sog'liqni saqlash infratuzilmasining yetarli emasligi;
2. Ishsizlik muammosi va norasmiy mehnat bozori;
3. Chet elga vaqtincha migratsiya tufayli oilaviy ajralishlar va ijtimoiy beqarorlik holatlari;
4. Raqamli texnologiyalar va axborot vositalaridan foydalanishdagi tengsizlik.

Bular yoshlar o'rtasida ijtimoiy ajralishlarni kuchaytiradi va jamiyatda ijtimoiy adolatning izdan chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Yoshlar orasidagi chuqur tabaqalanish oqibatida jamiyatda ijtimoiy norozilikni keltirib chiqishi, ijtimoiy harakatchanlikni pasayishi, intellektual salohiyatni yo'qotish xavfini oshirishi mumkin.

Ushbu holatlarni yumshatish uchun quyidagi chora-tadbirlar muhim hisoblanadi. Bulardan, ta'limda teng imkoniyatlarni ta'minlash, ayniqsa, qishloq joylarda sifatli ta'limga e'tiborni kuchaytirish, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish, kam ta'minlangan oilalardan chiqqan yoshlar uchun kvotalar va grantlar ajratish, yoshlar bandligini ta'minlashga qaratilgan startaplar, kasb-hunar o'rganish dasturlarini kengaytirish, madaniy va sport infratuzilmasini rivojlantirish orqali yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish.

Xulosa

Jamiyatda ijtimoiy liftlar ya'ni, yoshlarning o'z iqtidor va qobiliyati asosida yuqori ijtimoiy mavqe egallashi uchun imkoniyatlar mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Ta'lim sifatini oshirish, yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish, ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar yaratish orqali ijtimoiy tabaqalanish ta'sirini yumshatish mumkin.

Yoshlarning ijtimoiy tabaqalanishi har bir jamiyatning barqarorligi va kelajagi uchun muhim indikatorlardan biridir. Adolatli, inkluziv va imkoniyatlarga boy jamiyat barpo etish yo'lida yoshlar orasidagi ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi zarur. Bunda nafaqat hukumat, balki



ta'lim muassasalari, jamoatchilik va fuqarolik jamiyati institutlari ham faol ishtirok etishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Giddens A. Sotsiologiya. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2004. – B. 213–216.
2. https://t.me/Press_Secretary_Uz/3054
3. <https://www.uzanalytics.com/jamiyat/8847/>
4. Juraevna N. N. THE ROLE OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN YOUTH SOCIAL ACTIVISM //Archive of Conferences. – 2021. – C. 50-51.
5. Warner L. Social Class in America. Chicago, 1949.
6. Назарова Н. Ж. YOSHLARDA RAQOBATBARDOSHLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH PARADIGMALARI: SHARQ VA G'ARB KONTEKSTIDA //Журнал Социальных Исследований. – 2022. – Т. 5. – №. 2.
7. Ўзбекистон Республикасининг «Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида»ги ЎРҚ-406-сон Қонуни. 2016 йил 14 сентябрь. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 37-сон, 426-модда; 2017 й., 24-сон, 487-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.07.2018 й., 03/18/486/1559-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон.